

1 – VARIANT

1. Quyidagi dorivor gulli o'simliklarni qaysi kasalliklarga da'vo bo'lishini mos ravishda toping.
I) sachratqi; II) gulxayri; III) qirbog'im;
IV) tugmachagul;
1) ichni yumshatuvchi; 2) oshqozon ichak kasalliklarini da'volashda; 3) qon bosimini tushirishda; 4) yo'talga qarshi; 5) siydik haydovchi; 6) qon ketishini to'xtadi;
A) II-6; III-3; IV-1; B) I-2; II-1; IV-5;
C) II-4; III-5; I-2; D) I-2; IV-1; II-4;
2. Sinf jihatdan ortiqchasini toping.
A) bo'ka B) yaydoqchi
C) „oq chumoli“ D) kana
3. Quyidagi ilmiy ishlar va ularga tegishli shaxslar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
a) izotoplardan biologiya va tibbiyotda foydalanish yo'llarini ochib bergan; b) fagotsitar nazariya yaratgan; c) birinchi bo'lib elektron mikroskopiya laboratoriyani mamlakatimizda tashkil etdi;
1) Sechenov; 2) Zufarov; 3) Pavlov; 4) To'raqulov;
5) Mechnikov; 6) Aripov; 7) Yunusov; 8) Galen;
A) a-4; b-5; c-2; B) a-2; b-1; c-4;
C) a-8; b-3; c-6; D) a-7; b-5; c-2;
4. Modifikatsion o'zgaruvchanlik xususiyatlarini nomuofiq bo'lganlarini aniqlang.
1) irsiylanish xususiyatiga ega emas; 2) o'zgarishlar guruhli xarakterga ega emas; 3) o'zgarishlar tashqi muhit ta'siriga bog'liq; 4) namoyon bo'lish darajasi bir xil;
5) irsiylanish xususiyatiga ega; 6) o'zgarishlar guruhli xarakterga ega; 7) namoyon bo'lish darajasi xar xil; 8) o'zgarishlar tashqi muhit ta'siriga bog'liqmas;
A) 1,6,7 B) 2,3,5 C) 1,2,8 D) 2,4,5
5. Povituxa deb ataluvchi qurbaqa otalangan tuxumlarini to yosh qurbaqalar rivojlanguncha orqa tomonida „opichlab“ yuradi. Yuqoridagi ma'lumot organizmlarni qanday tarzda moslanishi bilan bog'liq?
A) fiziologik B) etologik
C) ekologik D) geografik
6. Sklerofit (a) va gigrofit (b) terminlariga mos ma'lumotlarni juftlang.
1) mo'tadil nam sharoitda o'suvchi o'simliklar;
2) yuqori namlikka ega joyda o'sadigan o'simliklar;
3) namlik yetarli bo'lmagan joydagi o'simliklar;
A) a-1; b-3; B) a-3; b-2; C) a-2; b-3; D) a-1; b-2;
7. Savatcha to'pgul hosil qiladigan oila vakillarini nechitasi „Qizil Kitob“ga kiritilgan?
A) 50 ta B) 60 ta C) 37 ta D) 30 ta
8. Tovushqonlar bilan mantiqiy bog'liq bo'lgan javobni aniqlang.
1) yuragi yo'rt kamerali; 2) „Qizil kitob“ ga kiritilgan;
3) quyonlar in qurishi bilan farq qiladi; 4) o'mrov suyagi
5) suvsarsimonlar oilasiga mansub; 6) kurak tishlari mavjud; 7) qoziq tishlari doimo yemirilib turadi;
A) 1,3,7 B) 2,4,5 C) 3,4,6 D) 1,4,7
9. Tirnoqqa tegishli fikrlarni juftlang.
a) muguz plastinka; b) biroz botiq; c) har kuni 0,1-0,2 mm o'sadi d) tiniq rangli bo'ladi; f) ildiz va tanadan iborat; g) silliq
A) d.f.g B) b.c.d C) c.d.g D) a.f.g
10. Quyidagi navlar orasidan bir oilaga mansublarini aniqlang.
1) Porloq-4; 2) Gultish; 3) Sulton; 4) Hiloliy; 5) Obidov;
6) Sanzor; 7) Omad; 8) Yulduz; 9) Vatan; 10) Farhod;
A) 7,9,10 B) 1,7,8 C) 2,3,4 D) 3,5,6
11. O'simliklarni yashil qismida sintezlanadigan vitamininga tegishli ma'lumotlarni aniqlang.
1) har kuni 1 g iste'mol qilish lozim; 2) quyosh nurida terida sintezlanadi; 3) yetishmasa beri-beri kelib chiqadi;
4) oqsil va karbon suvlar almashinuviga ta'sir etadi; 5) yetishmasa og'izning shilliq pardasiga mayda yaralar toshadi; 6) yetishmasa shabko'rlik yuzaga keladi; 7) uglevodlar almashinuviga ta'sir etadi
8) suyaklanish jarayonida kata ahamiyatga ega;
A) 4,5 B) 1,6 C) 2,8 D) 3,7
12. Toshbaqalar avlodi (a) va o'txo'r kaltakesak (b) ni mos ravishda aniqlang.
1) ixtiozavr; 2) brontozavr; 3) tritsopetoprs;
4) mezozavr; 5) plakoxelis; 6) tironozavr;
A) a-1; b-4 B) a-5; b-2 C) a-3; b-6 D) a-3; b-2
13. Tabobatda ichni yumshatuvchi dori sifatida foydalanadigan o'simlikning bargi qanday tuzilgan?
A) Murakkab panjasimon uzun badli
B) Oddiy panjasimon uzun bandli
C) Murakkab, uzun bandli, 5-7 ga bo'linadi
D) Oddiy, 5-7ga bo'lingan, qisqa bandli bo'lgan
14. Uch kamerali(a) va to'rt kamerali(b) yurak paydo bo'lgan davrni juftlang.
A) a-devon; b-toshko'mir B) a,b-devon
C) a-toshko'mir; b-bo'r D) a-devon; b-perm
15. Quyidagilardan eng oxirgi armorfozni aniqlang.
A) ochiq urug'lilarni paydo bo'lishi
B) ko'p hujayralilarni kelib chiqishi
C) jinsiy ko'payish
D) fotosintez
16. Odamning uch qavat va uch xil pardaga ega bo'lgan organini aniqlang.
A) quloq B) ko'z C) orqa miya D) qon tomir
17. Tana harorati saqlanishdagi fizik mexanizmlardan qalin jun (a) pat (b) teri ostida yog' kletchatka (c) ga ega bo'lgan hayvonlarni ko'rsating?
A) a-bo'rsiq b-ko'rgalak; c-delfin
B) a-kasatka; b-suqsun; c-yo'lbars
C) a-kaputsin; b-kojan; c-tapir
D) a-taqaburun; b-qilquyruq; c-tapir
18. Askaniya rambulesiga xos xususiyatlarni aniqlang.
1) odamlar tomonidan yaratilgan nav;

- 2) chuvalchaglarni bir turi; 3) juft tuyuqli;
4) oshqozoni bir bo'lmali; 5) odamlarda parazitlik qiladi;
6) odamlar tomonidan yaratilgan zot; 7) issiq qonli sutemizuvchi; 8) bakteriyalar bilan simbioz yashaydi
A) 2,5,8 B) 1,3,7 C) 3,6,7 D) 4,6,7
19. Parafinda o'sadigan organizmga tegishli fikrni aniqlang.
A) yadro,mitoxondriya, plastidlar qo'sh membranali;
B) yadrosi shakllanmagan, halqasimon DNK ga ega
C) ko'payishida yadro saqlovchi bo'rtmacha paydo bo'ladi
D) jinsiz bo'linish kuzatilmaydi
20. Bambuk ayig'i (a) va qo'ng'ir ayiq (b) uchraydigan biografik viloyatda tarqalgan qushlarni aniqlang.
1) tustovuq 2) bankiv tovuqlari 3) kolibri 4) nandu
5) qirg'ovul 6) chittak 7) emu 8) tovuq 9) kar
10) tasqara 11) xashaki tovuq 12) yapaloq qush
A) a-3,4,12 b-1,6,9 B) a-2,5,8 b-6,1,9
C) a-7,10,12 b-3,9,11 D) a-1,5,7 b-2,8,10
21. Viruslar ko'payishini to'xtatuvchi tuzilmani aniqlang.
A) insulin B) inteyron
C) bakteriofag D) interferon
22. Jami 1000 ta nukleotiddan iborat ikkita DNK molekulasida mavjud bo'lsa, birinchi DNK molekulasidagi nukleotidlarning 25 %i A, ikkinchi DNK molekulasidagi nukleotidlarning 20 %i T dan iborat. Agar ikkala DNK dagi G lar yig'indisi 270 taga teng bo'lsa, ikkinchi va birinchi DNK nisbati qanday bo'ladi ?
A) 1:1,5 B) 1:1 C) 1,5:1 D) 3:1
23. Drontga tegishli ma'lumotlarni aniqlang.
1) sutemizuvchi hisoblanadi; 2) ilik suyagi mavjud
3) muhofazaga olingan; 4) qushlar sinfiga kiradi;
5) kemiruvchilarga mansub; 6) qirib tashlangan tur hisoblanadi; 7) Mavrikiy orollarida uchragan
8) Tasmaniya orollarida uchragan;
A) 2,4,6 B) 1,3,7 C) 2,3,8 D) 1,5,7
24. D.Abdukarimov tomonidan yaratilgan navga tegishli no'tog'ri bo'lmagan fikrlarni aniqlang.
1) kartoshkani Samarqand-3 navi hisoblanadi;
2) kartoshkani cho'ziq ertapishar navi;
3) u ituzumdoshlarga mansub;
4) mevasi tugunak hisoblanadi;
5) shingil to'pgul hosil qiladi;
6) bir yilda ikki marta hosil olish mumkin;
A) 1,3 B) 2,4,5 C) 4,6 D) 3,6
25. . Quyonlar qulog'ining uzunligi ikki juft polimer genlar tomonidan boshqariladi. Har bir dominant gen quloqning uzunligi 6 sm bo'lishini, har bir retsessiv gen esa 3 sm bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi genotipli organizmlarni ularning fenotipiga moslashtiring.
1) D₁D₁D₂D₂; 2) D₁d₁D₂D₂; 3) D₁D₁D₂d₂; 4) D₁D₁d₂d₂;
5) D₁d₁d₂d₂; 6) d₁d₁d₂d₂; 7) d₁d₁D₂d₂; 8) D₁d₁D₂d₂;
a) 24 sm; b) 21sm; c) 18sm; d) 15sm; e) 12 sm;
A) a- 1; b- 4,8; c- 2,3; d- 5,7; e- 6;
B) a- 1; b- 2,3; c- 4,8; d- 5,7; e- 6;
C) a- 6; b- 2,5; c- 7,8; d- 4,5; e- 1;
D) a- 1; b- 2,4; c- 3,7; d- 5,8; e- 6;
26. Olcha mitoxondriyasida 24 molekula ATF sintezlangan bo'lsa, xloroplastlarda ATF da to'plangan energiyani (kJ) aniqlang.
A) 21600 B) 24000 C) 28800 D) 36000
27. Qoraqarag'ay (a) va qoraqayin (b) tarqalgan biografik viloyatlarni mos ravishda aniqlang.
1) Neartik 2) Habashiston 3) Neotropik
4) Paleartik 5) Hindomalay 6) Avstraliya
A) a-5 b-2 B) a-1 b-4 C) a-4 b-6 D) a-3 b-4
28. Siydik pufagiga nomuvofiq keladigan javobni belgilang.
1) siydik to'planadi; 2) 200-300 cm³ hajmli; 3) to'lgan siydik pufagi halqasimon shaklda ko'rinadi; 4) tubining orqa devoriga 2 ta siydik yo'li ochiladi; 5) qov suyagi-ning orqasida, katta chanoq bo'shlig'ida joylashgan; 6) devorining o'rtasi muskul, tashqi qavati epiteli to'qimadan tuzilgan;
A) 1,3,5 B) 2,4,6 C) 1,4,6 D) 2,3,5
29. Paratgormon (1), insulin (2), tiroksin (3) gormonlarining funksiyalarini aniqlang.
a) qand almashinuvini boshqaradi; b) limfotsitlar hosil bo'lishini kuchaytiradi; c) jinsiy bezlar faoliyatini boshqaradi; d) kalsiy va fosfor almashinuvini ta'minlaydi; e) yurak ishini boshqaradi
A) 1 - d, 2 - a, 3 - e B) 1 - d, 2 - a, 3 - b
C) 1 - d, 2 - e, 3 - b D) 1 - e, 2 - a, 3 - b
30. Arpa o'simligida xlorofill pigmentini sintezlashda ikkita ferment qatnashadi. Ularning bo'lmashligi pigment sintezining buzilishiga olib boradi. Har bir fermentning sintezi har xil autosomalarda joylashgan dominant (A va B) genlar bilan ifodalanadi. Birinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmashligi o'simliklarning oq rangda, ikkinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmashligi o'simliklarning sariq rangda bo'lishiga olib keladi. Ushbu genlarning birgalikda bo'lmashligi o'simlikning oq rangini, birgalikda bo'lishi yashil rangini ta'minlaydi. Agar digeterozigotali arpalar o'zaro chatishtirilsa, avlodda olingan duragaylarning necha foizi faqat yashil rangli bo'ladi ?
A) 25 B) 6,25 C) 12,5 D) 56,25

OLYGOHLAR SIZNI KUTMOQDA !!!